

Yp

Tong yulduzi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:16 (67077)
2016-yil
18-aprel

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

Minoralar qad ko'tardi qoshimizda,
Humo qushi uchib borar boshimizda...

ENG YAXSHI
HUNARMAND

4-bet.



YOSHLIK, JO'SHQINLIK BAYRAMI

Respublikamiz bo'ylab davom etayotgan «Biz — buyuk yurt farzandlarimiz» shiori ostidagi yoshlar festivali Samarqand hamda Navoiy viloyatlarida ham bo'lib o'tdi.



— Men 2013-yil «Tong yulduzi» gazetasida e'lon qilingan «Mustaqillik madhi bolalar ijodida» respublika ko'rik-tanlovida ishtirok etib, insholar yo'nalishida 3-o'ringa loyiq topildim. O'shanda Navoiy viloyati, Qiziltepa tumanidagi 12-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi edim, — deydi Qiziltepa qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi kasb-hunar kolleji o'quvchisi Yulduz Abdurashidova.

Joylarda o'tkazilayotgan yoshlar festivalida so'zga chiqqanlar respublikamizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy islohotlar, hayotimizda ro'y berayotgan demokratik o'zgarish va yangilanishlar haqida, yoshlarni «Ommaviy madaniyat» va boshqa mafkuraviy tahdidlardan asrash, shuningdek, festival doirasida amalga oshiriladigan loyihalar xususida gapirib o'tdilar.

Unda ta'lim muassasalari, Mehribonlik uylarida «Siz sevgan qahramonlar», «Deputat va yoshlar», «Ommaviy madaniyat», «Zamonamiz qahramonlari», «Hech kim mehr va e'tibordan chetda qolmasin!» kabi mavzularda el sevgan shoir va yozuvchilar, san'atkorlar bilan uchrashuvlar, kitobxonlikni keng targ'ib etuvchi loyihalar, sport musobaqalari yoshlarga unutilmas onlarni taqdim etdi.

— Bugun esa yoshlar festivalida «Siz sevgan qahramonlar» loyihasi doirasida qatnashar ekanman, shu yurt, shu zamin farzandi ekanligimdan faxrlanaman. O'zbekistonimni yanada gullab-yashnashi uchun bor iqtidorim va imkoniyatimni ishga solishga tayyorman.

Festival ishtirokchilari Samarqand viloyatining eng chekka tumanlaridagi ta'lim muassasalarida, jumladan, Qo'shrabot tumanidagi 41- umumta'lim maktabi, 5-bolalar musiqa va san'at maktablarida bo'lib, «Odam savdosi — davr muammosi», «Diniy ekstremizm va terrorism — yoshlar kelajagiga tahdid», «Biz — sog'lom turmush tarafdorimiz» mavzularida davra suhbatlari o'tkazildi. Shuningdek, festival ishtirokchilari viloyatning Samarqand, Pastdarg'om, Urgut, Tayloq, Bulung'ur, Oqdaryo, Ishtixon, Kattaqo'rg'on, Payariq va Paxtachi tumanlari markazi hamda chekka qishloqlaridagi ko'plab ta'lim muassasalarida bo'lib, yoshlar bilan dildan suhbatlashdilar. Joylarda o'tkazilgan konsert dasturlari hamda «Mustaqillik farzandlari» gala-konserti ishtirokchilarga olam-olam quvonch ulashdi.

F. SOYIBJON qizi



O'ZBEKISTON — BAG'RIKENG DIYOR

Aziz o'quvchi, kuzatib borayotgan bo'lsangiz, joriy yil boshidan mamlakatimizda Mustaqilligimizning 25 yilligiga bag'ishlab qator tadbirlar o'tkazib kelinmoqda.



Buxoroda tashkil etilgan foto'rgazma ham shundan dalolat beradi. Viloyat davlat badiiy-me'morlik muzey-qo'riqxonasining tasviriy san'at bo'limida tashkil etilgan mazkur ko'rgazma «O'zbekiston — bag'rikeng diyor» deb nomlandi. Ko'rgazmada namoyish etilgan 120 ga yaqin surat yurtimizda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari, zamonaviy inshootlar, madaniyat va san'atimizning yuksalishi, milliy qadriyatlarimizning e'zozlanishi, sportchilarimizning xalqaro musobaqalardagi yutuqlari, respublikamiz — unda yashayotgan barcha millat va elatlar uchun yagona Vatan ekani haqida hikoya qiladi.

Ko'rgazmaga tashrif buyurgan o'quvchilar fotolar tomoshasidan bahramand bo'lish bilan birga, o'zlar yashayotgan hududdagi inson va uning manfaatlariga qaratilgan bunyodkorlik ishlari mohiyatini chuqur anglab yetdilar. Davlatimiz tomonidan yaratilgan ulkan imkoniyatlardan oqilona foydalanib, mustahkam bilim egasi bo'lish barobarida olgan bilimlarini hayotga tatbiq etish hamda jamiyatda kechayotgan jarayonlarga daxldorlik tuyg'usi bilan qarash tushunchalariga ega bo'lishdi.

Zarnigor MUSAYEVA

Toshkent viloyatining qator ta'lim muassasalarida «Kim edig-u kim bo'ldik, ertaga qanday yuksak marralarni egallashimiz kerak?» mavzusida madaniy-ma'rifiy tadbirlar bo'lib o'tdi.

KIM EDIG-U KIM BO'LDIK

O'quvchilar taniqli shoir, yozuvchi, san'atkorlar bilan ijodiy muloqotda bo'ldilar.

Jumladan, Piskent tumanidagi 10- va 30-umumta'lim maktablaridagi o'tkazilgan tadbir o'quvchilarga o'zgacha zavq ulashdi. Respublikada xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi, bolalar adibasi Muhayyo To'laganova, «O'zbeknavo» xonandasi Jasurbek Rahimov, yosh aktyor Saidaloxon Ma'sudxonov bilan bo'lgan davra suhbatlari o'quvchilarda katta taassurot qoldirdi. O'z navbatida, o'quvchilar ham mehmonlarga ijod natijalarini tuhfa etdilar.

10-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi Farog'at Ne'matova chanqovuzda ajoyib kuy chalib bergan bo'lsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari ingliz, qozoq, rus tillarida kuy-qo'shiqlar ijro etishdi.


30-umumta'lim maktabining «Mohir qo'llar» to'garagi a'zosi, 8-sinf o'quvchisi Nasiba Bozorova o'zining qo'l mehnati mahsuli bo'lgan: to'qilgan kamzul, qalpoqchalar, ko'ylakchalar va boshqa ijod namunalari bilan mo'jaz ko'rgazmasini namoyish etdi.



Muzaffar AHMEDOV

18-aprel – Xalqaro yodgorliklar va tarixiy joylarni asrash kuni

Bolajonlar, yurtimiz turli tarixiy, me'moriy obidalarga boy. Mustaqillikka erishgach, ularning aksariyati qayta ta'mirlanib, o'zgacha ko'rinishga ega bo'ldi. Ular davlatimiz tomonidan nomoddiy-ma'naviy meros sifatida asrab-avaylanadi. Shu sabab, Vatanimizdagi ko'plab yodgorliklar YUNESKOning «Dunyodagi nodir me'moriy inshootlar» kitobiga kiritilgan. Bugun sizlarga yurtimizdagi diqqatga sazovor tarixiy obidalarining ayrimlari haqida so'zlab bermoqchimiz.



Navoiy viloyati, Qiziltepa tumanining Vangg'oz qishlog'ida ushbu yodgorlik, tarixiy manbalarga ko'ra, XVI asrga tegishli.

TOSHMASJID MAJMUASI

Bu tarixiy obida ko'p ustunli yirik xonadan iborat bo'lib, 2 ta yirik va 16 ta bir xildagi kichik gumbazlar bilan yopilgan. Sharqqa qaragan masjid oldida qad ko'targan minoraning balandligi 24 metrni tashkil qiladi. Ushbu inshoot O'rta Osiyoda saqlanib qolgan XVI asrga oid shu turdagi inshootlarning eng baland va nafisi sanaladi.

Shu kunga qadar dunyo ahlini lol qoldirib kelayotgan tarixiy obidalarining ayrimlari bilan tanishdingiz. Siz yashayotgan qishloq yoki shaharda tarixiy obidalar bormi? Ularning nomlanishi, tarixi haqida bizga, albatta, yozib yuboring.

Ozoda **TURSUNBOYEVA**

MENI ZAVQLANTIRGAN SHE'R

Ik marotaba «Tong yulduzi» gazetasi-ga maktub yo'llayman. Bolaligimdan she'r yozishga, rasm chizishga juda qiziqaman.



Bo'sh vaqtlarimda esa o'zbek va jahon bolalar adiblarning kitoblarini o'qishni yoqtiraman. Qolaversa, gazeta sahifalarida berib borilayotgan hikoya va ertaklar, tengdoshlarimning she'rlarini ham mutolaa qilib boraman. Masalan, «Tong yulduzi»ning o'tgan sonlaridan birida chop etilgan Mahliyo Shodiyevaning «Parvozim» nomli she'ri menga juda manzur bo'ldi. Uning ijodidan ilhomlanib, men ham she'r yozdim. Meni zavqlantirgan Mahliyoga dunyodagi eng samimiy tilaklarimni izhor etaman. Kelajakda Zulfiya, Saida Zununova kabi yetuk shoira bo'lishiga tilakdoshman.

Munira **DAVLATOVA**, Jizzax tumanidagi 10-umumta'lim maktabining 8-«A» sinf o'quvchisi

FE'LI YAXSHI INSONNING O'YLARI GO'ZAL



Maktabimiz qishloqda joylashgan bo'lishiga qaramay, zamon talablariga to'liq javob beradi.

Bu yerda biz, 552 nafar o'quvchining a'lo baholarga o'qishimiz uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Jumladan, informatika xonasida 20 ta zamonaviy kompyuter ixtiyorimizda: jahon va o'zbek mumtoz adabiyoti bilan boyitilgan 2 ta kutubxonamiz bor. Katta sport zali va chim yotqizilgan maydonda mazza qilib sport bilan shug'ullanmoqdamiz.

Men bo'sh vaqtimda oila a'zolarimiz kabi badiiy kitoblar mutolaa qilishni juda yoqtiraman. O'zim ham kichik hikoya, she'rlar yozib turaman. Qiziqishimni ona tili va adabiyot o'qituvchimiz Nargiza Berdiyeva ijibiy baholadi. Sizga o'z ijod namunalarimdan havola etaman:

Ajdodlari ulug' yurt buyuk bo'ladi, Farzandlari elda doim suyuq bo'ladi. Fe'li go'zal insonning o'ylari go'zal, Ahillikda qurilgan yurt buyuk bo'ladi.

Bog'larida kuylaydi qushlari shodon, Yurt haqida to'qilar ertak va doston. Uning madhi dillarda o'chmagay, inon, Farzandlari buyuk yurt buyuk bo'ladi.


Farruxjon **SAFAROV**, Navoiy viloyati, Xatirchi tumanidagi 45-umumta'lim maktabining 8-«A» sinf o'quvchisi

Yusuf **OG'AY**

Ko'hna va navqiron...

Qadimdan Buxoroi sharif ana shunday nom bilan ulug'lanadi. Buxoroda tarixiy obidalar talaygina. Ulardan biri Ark qo'rg'oni. Ark atamasi hukmdorlar qarorgohi joylashgan qal'a, baland o'rda ma'nosini bildiradi. Yozma manbalarga ko'ra, Ark qo'rg'oni tepalikda qurilgan bo'lib, atrofi baland devor bilan o'ralgan. Qal'aga kirish uchun ikkita katta darvozadan foydalanilgan. Ark ichida amir, lashkarboshilarning uy-joylari, zarbxonalar, masjid va sardobalar bo'lgan. Uning yuqorida joylashishi tevarak-atrofnı kechayu kunduz bemalol kuzatish imkonini bergan.

O'z davrining mislsiz kurashchisi, xushta'b shoir bo'lgan Pahlavon Mahmudga hind mulkidan bir zargar kelib, noma topshirdi. Bu Hindiston podshohidan da'vatnoma edi. Garchi bunday chorlovlarni Pahlavon uchun zarracha qimmatı bo'lmasa-da, ko'nglining bir chetida borish kerak, degan nido kelib turardi. Shu bois Hindistonga bordi. Hind podshosining mashhur bir kurashchisi bo'lib, Pahlavon Mahmudni chaqirishdan maqsad, u bilan kurashga solmoq edi.



OLIHIMMAT PAHLAVON

Kechki payt biroz aylanishga chiqqan Pahlavon Mahmud xilvat joyda bir keksa onaxonning yolvorib, munojot qilayotganini ko'rib qoldi. Kampir ertaga kurash maydonidan o'g'lini sharmanda bo'lmay chiqishini zor-zor tilardi.

Pahlavon shu ayol hindistonlik polvonning onasi ekanligini anglab, bo'lg'usi bellashuvda yiqilib berishni diliga tugibdi. Kurash boshlanganda maydonda raqibining onaizorini iltijosini eslab, minglab tomoshabinlar ko'z oldida yiqilib berdi. Podsho muridiga yetganidan behad mamnun edi. Shunga qaramay, Pahlavon Mahmudni maxsus chaqirtirgani uchun xos mehmon sifatida ko'p izzat-ikrom ko'rsatdi. Bir kuni ovga chiqmoqchi bo'lganida mehmonni ham birga borishga taklif qildi. Podsho o'ljaning izidan tushganida ko'ziga hech narsa ko'rinmasdi. Bu gal ham shunday bo'ldi. Sayd ortidan quvib borayotib baland bir qoyadan sakrab o'tdi. Shu pallada podsho otning jilovini qo'ldan chiqarib yubordi. Otning orqa oyoqlari kamarga tiqilib qolib, old oyog'i osmonga ko'tarilgan chog'da Pahlavon Mahmud otni suvoriy bilan qo'shib dast ko'targanicha tekis yerga olib qo'ydi. Muqarrar halokatdan omon

qolgan podsho hayrat bilan unga tikilganicha so'radi. «Buncha kuch-quvvat bilan bizning polvondan yiqilganing ajablanarlidir». Pahlavon esa ushbu go'zal satrlar bilan javob berdi:

O'z nafsingga hokim bo'lsang, marddirsan, Eslaganda ayb qidirmasang, mardsan. Yiqilganni tepish mardlikdan emas, Yiqilganni qo'llasang, o'shanda mardsan.

Hazrat Alisher Navoiy o'zining «Nasoyim ul-muhabbat» tazkirasida bu voqeani chiroyli tarzda ifodalagan. Yurtimizda tabarruk qadamjolar juda ko'p. Xalqimiz bu joylarni ziyorat qilib, buyuk bobolarimiz xotirasiga yuksak ehtirom ko'rsatishadi. Ko'hna Xivaning noyob gavhari bo'lmish Ichan Qal'ada joylashgan Pahlavon Mahmud maqbarasi hamisha ziyoratchilar bilan gavjum. Bugun sizlarga buyuk bobolarimizdan biri haqida muxtasargina hikoya qildik. Agar sizda ham bu joylarni ko'rish istagi tug'ilgan bo'lsa, bundan benihoya xursandmiz.

O'QUVCHILAR FESTIVALI

Yaqinda Farg'ona shahridagi Yoshlar markazida «Yuksak ma'naviyatli avlod» festivali o'tkazildi. Tadbirda shahardagi umumta'lim maktablaridan uch yuzdan ortiq o'quvchilar ishtirok etishdi.

Festivalning shahar bosqichi «Badiiy ijod», «Prezident asarlari yosh bilimdoni», «Eng iqtidorli yosh hunarmand», «O'z asarida milliylikni aks ettirgan yosh rassom», «O'z asarida milliylikni aks ettirgan yosh dizayner», «Vatan yosh kuychisi» kabi nominatsiyalar bo'yicha o'quvchilar orasida qizg'in bahslarga boy va mazmunli o'tkazildi.

Nominatsiyalar bo'yicha g'oliblar aniqlanib, viloyat bosqichiga yo'llanma olishdi.

Muhammadjon MAHMUDOV

Poytaxtimizning Chinobod sanatoriyasida «Tong yulduzi» gazetasi kunlari»ning o'tkazilishi biz o'quvchilarga ajoyib bayram sovg'asi bo'ldi.

TASHRIFINGDAN QUVONDIK

Mamlakatimizning turli go'shalaridan kelgan dam oluvchilar qatorida bu maskan yaqinida istiqomat qiluvchi tengdoshlarim ham ota-onalari bilan chiqib, tadbirdan olam-olam zavq oldilar.

Tahririyat xodimlari gazetaning tayyorlanish jarayoni haqida so'zlab, o'zlarining qiziqarli ijod namunalari bilan o'qib berdilar. Tadbir davomida ijodkorlarning kelgusi rejaları bilan tanishdik.

Do'stlarim bilan sevimli gazetamni doimiy ravishda kuzatib borishni maqsad qilib oldik.

Abdunosir G'ANIYEV, poytaxtimizdagi 302-umumta'lim maktabining 6-«B» sinf o'quvchisi

ENG YAXSHI HUNARMAND

Bunyodjon hunarmandlar sulolasining uchinchi vakili. Uning ukalari Bobur va Behzod Zoirjonovlar ham shu kasbga astoydil mehr qo'yishgan.

Ular qo'lida tayyorlangan stol-stul, har xil quticha kabi hunarmandchilik buyumlari faqat xonalarni bezabgina qolmay, kundalik turmushimizda foydalanishda ham qo'l keladi.

O'zbekiston Respublikasi badiiy akademiyasi qoshidagi dizayn kollejining 1-bosqich o'quvchisi Bunyodjon Zoirjonov o'zi ta'lim-tarbiya olgan Jizzax tumanidagi 36-umumta'lim maktabi hamda 6-MTM va 13-MTM tarbiyalanuvchilariga guldon va har xil naqshli qutichalar tayyorlab, sovg'a qilgan.

— Yosh hunarmandlarning tayyorlayotgan uy-ro'zg'or buyumlari o'ziga xos bo'lib, shakli va turli-tuman bezagi bilan ajralib turadi, — deydi Jizzax viloyat hunarmandlar uyushmasi raisi Kamol Mahmudov. — Ular ajdodlarga munosib voris bo'lish uchun mahsulotlarini yangi uslublar, zamonaviy yo'nalishlar bilan boyitib bormoqdalar.



Bir necha bor respublika ko'rik-tanlovlari ishtirokchisi, qo'li gul hunarmand Hilo-la Akromova shogirdlariga yo'l-yo'riq va ko'rsatmalar berishdan aslo charchamaydi.

Yaqinda hunarmand usta Bunyodjon Zoirjonov «Tashabbus — 2016» ko'rik-tanlovining respublika bosqichida «Eng yaxshi hunarmand» nominatsiyasi g'olibi bo'lib, diplom va sovg'alar bilan taqdirlandi.

Abdulla SAIDOV



Sen uchun hayotim bag'ishlay, Vatan, Odobim, bilimim, mehnatim bilan. Tuprog'ingga doim ta'zim qilaman, Bayrog'ing ko'klarga ko'tarib, Vatani!

VATAN MADHI

Ushbu misralar poytaxtimizning Sergeli tumanidagi 6-IDUMning 5-«Z» sinf o'quvchisi Ruxsora Isroiljonovaning ona Vatan mavzusidagi she'rlaridan olindi. Tengdoshingiz maktabda ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Gulnora Yo'lchiyeva rahbarligidagi «Yosh ijodkorlar» to'garagining faol a'zosi. Uning she'rlari maktab devoriy gazetasida tez-tez e'lon qilib boriladi. Shuningdek, «Kamalak» yulduzlari tanlovining shahar bosqichida she'riyat yo'nalishi bo'yicha 1-o'rinni egalladi. O'tgan yili O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga bag'ishlangan tanlovda ham faxrli 1-o'rinni, matematika fanidan o'tkazilgan «Bilimlar bellashuvi»da esa 2-o'rinni qo'lga kiritdi.

O'z she'rlarida Vatan, ona, do'stlik va tabiat go'zalliklarini ifoda etishga harakat qilayotgan tengdoshingizga omad tilaymiz.

ZUBAYDA

Kuni kecha poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi 109-umumta'lim maktabida

«HUQUQ BILIMDONLARI»

respublika tanlovining tuman bosqichi bo'lib o'tdi. Unda tumandagi 30 ta umumta'lim maktablaridan eng bilimdon o'quvchilar o'zaro kuch sinashishdi.

Tanlov ishtirokchilari hakamlar hay'ati tomonidan baholanib borildi. Tanlovdagi 1-shart test bo'lib, unda 25 ta savolga har bir jamoa birgalikda javob berishdi. 2-shart huquqiy bilimdonlik sharti bo'lib, unga ko'ra, XTMFMTE bo'limining tegishli mutaxassislari tomonidan tuzilgan 3 ta savolga javob berishdi. Buning uchun ularga 10 daqiqa vaqt ajratildi. Va nihoyat,



3-shartda esa, voyaga yetmaganlar o'rtasidagi huquqbuzarliklar, ularning yoshlar hayoti va kelajagiga salbiy ta'siri, uning oldini olish choralari bo'yicha sahna ko'rinishi namoyish etildi.

— Ushbu shartni bajarish uchun 10 daqiqa vaqt berilgan, — deydi Uchtepa tumani ijtimoiy fanlar uslubchisi Jasur Eshquvvatov. — Bunda mavzuning ochib beril-



ganligi, maktabda olingan bilimlarning aks ettirilishi, o'quvchilarning qobiliyati va ijro mahorati inobatga olingan holda jami 20 ballgacha baholandi. Tanlov natijalariga ko'ra, 14-umumta'lim maktabining «Adolat» jamoasi 3-o'rinni, 107-umumta'lim maktabining «Huquqshunoslar» guruhi 2-o'rinni qo'lga kiritgan bo'lsa, 283-umumta'lim maktabining huquq fani o'qituvchisi Baxtiyor Nazarov rahbarligidagi «Yosh huquqshunoslar» guruhi faxrli 1-o'ringa loyiq topilib, shahar bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritdi.



Jamoliddin ABDULLAYEV, N. SULTONOV olgan suratlar

KELAJAK UMIDLARIMIZ

Yurtimizda yoshlarning har tomonlama barkamol avlod bo'lib ulg'ayishi, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini puxta egallashi uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. A'lochi va ilg'or o'quvchilarni o'zida birlashtirgan, «Kamolot» YOIH qoshida tashkil etilgan «Kamalak» bolalar tashkiloti yildan yilga sayqallanib, yangi iste'dodlarni kashf etib kelmoqda.

Navoioy viloyatida bo'lib o'tgan «Kamalak» bilimdonlari ko'rik-tanlovining viloyat bosqichida tuman va shahar vakillaridan iborat 10 jamoa o'zaro bellashdi. Ishtirokchilar tanlovda tanishuv, sahna ko'rinishi, savol-javob, ijtimoiy loyiha kabi yo'nalishlarda o'z bilim va mahoratini namoyish etdi. Yakuniy hisobga ko'ra, Zarafshon shahridagi 3-umumta'lim maktabi jamoasi 1-o'rinni egalladi.

Shuningdek, Xorazmda o'tkazilgan mazkur tanlovning viloyat bosqichida 11 jamoa o'zaro bellashdi. Tanlov qatnashchilari o'z jamoalarini she'r, qo'shiq, monolog, slaydlar vositasida tanishtirishdi. Bugungi kunda voyaga yetmaganlar o'rtasida kuzatilayotgan muammolar va ularning yechimi sahna ko'rinishlari orqali namoyish etildi.

Urganch tumanidagi 38-umumta'lim maktabining «Kamalak» zukkolari jamoasi 1-o'rinni egallab, tanlovning respublika bosqichida qatnashish huquqini qo'lga kiritdi.



NURBEK

«Kamalak» bilimdonlari ko'rik-tanlovi bizning maktabimizda ham bo'lib o'tdi. Yunusobod tumanidagi qator maktablardan tashrif buyurgan o'quvchilar 5 ta shart bo'yicha bellashdilar. Bellashuvda maktabimizning «Kelajak umidlari» guruhi ham faol ishtirok etib, yuqori natijalarga erishdi. Maktabimiz o'quvchilari bellashuvning tuman bosqichida 1-o'rinni qo'lga kiritdi. G'alabadan yanada ruhlangan jamoamiz tanlovning shahar bosqichida 2-o'ringa sazovor bo'ldi va diplom hamda esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Bu yutuqdan nafaqat guruh a'zolari, balki maktabimiz o'qituvchilari ham behad quvonishdi. Ularning quvonchlariga sherik bo'lar ekanmiz, bizning ham qalbimiz g'urur va iftixorga to'ldi.

Odina SAHOBIDDIN qizi,
poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi
96-umumta'lim maktabining 9-«A» sinf o'quvchisi

Lesson 82

Ingliz tilini o'rganamiz! Let's learn English!

FIND RHYMED WORDS

(Qofiyadosh so'zlarni toping)

Underline the word in each group of three words below which rhymes with the word in bold type.

- | | | |
|----------|--------|--------|
| 1. Bear | hire | hair |
| 2. Bone | lone | sun |
| 3. Both | cloth | growth |
| 4. Cry | grey | high |
| 5. Deer | chair | clear |
| 6. Few | knew | bow |
| 7. Hate | weight | right |
| 8. Home | come | comb |
| 9. Hot | knot | note |
| 10. Lost | most | frost |



Umida G'OFUR qizi


RIDDLES

(Topishmoqlar)

Find me! I start with «P» and end with «E»,
But I have thousands of letters.



I don't have wings,
but I can fly.
I don't have eyes,
but I will cry!



I was born big, but as the day passes, as I get older, I become small.



If you give me water, I'll die.
What am I?

Zarina KARIMOVA,
teacher of school number 8 in Kiziltepa district, Navoiy region

GROUP THE WORDS

(So'zlarni guruhlang)

Write the parts of speech under the correct heading (five words under each).

Work, lazy, elephant, fast, desk, clever, listen, angrily, smile, quietly, expensive, picture, road, wash, dry, well, empty, slowly, spectacles, congratulate.

Nouns elephant ...	Verbs
Adjectives	Adverbs

Prepared by Dinora SHAKIROVA.
Painter: YOQUBBEK

«COMPOUNDS» PUZZLE

Match the words and form compound nouns.

- | | |
|-----------|---------|
| 1) Foot | plane |
| 2) Air | scraper |
| 3) Up | day |
| 4) Arm | ball |
| 5) Rail | fall |
| 6) Lip | brush |
| 7) Sky | chair |
| 8) Water | stick |
| 9) Tooth | stairs |
| 10) Birth | way |



Zohida SHAROBIDDIN qizi,
teacher of school number 31 in Mirobod district

Ijodning betakror ranglari

Bahor tabiatni kuylatadigan fasl. Qushlarning bog'larni to'ldirib chug'urlashidan tortib, daraxtlarning kundan kun yashnab borishiga qadar ijodning betakror mahsulini his etamiz. Mehnatkash chumolilarning tizilib hayot zavqiga sho'ng'ishi kishini chuqur o'yg'a toldiradi.

Vatan tuprog'idan qorilgan loyni ko'ztumordek ayvonlarimizga osib, ko'z-ko'z qilishga ulgurgan qaldirg'ochlarning quvonchini izohlash qiyin. Ular o'z ijodining nozik qirralarini bunyod etishgan. Ayniqsa, gulkosalardan g'izillab bol simirayotgan sarxush bolarilarning ilohiy ijod sirlarini kuzatsangiz, topqirlikning qanchalar mashaqqatli kechishiga amin bo'lasiz. Tahririyatimizga dilidagi zavq-shavqini yashirolmay yurgan o'quvchilarning she'riy dilnomalari qanot qoqib kelishiga sabab ham o'quvchilarning kundan kun dunyoqarashi oshib, ona tabiatga mehri yuksalib borishidan dalolatdir. Ularning «Iltimos, she'rimni gazetada chop etsangiz», deya zorlanishlaridan olamni beg'ubor nigohi bilan kuzatib turgan qalbi qaynoq farzandlarimizning ko'ngil sururi yangraydi. Ammo hamma narsaning ham o'z qonun-qoidalari bo'lgani kabi she'riyatning ham o'ziga xos talabi borligini unutmasligimiz kerak. Ijodkor ohori to'kilmagan rangin so'zlarni naqqoshdek qog'o'zga tushira olishi shart. Buning uchun o'quvchi ko'p kitob o'qishi, o'z ustida tinimsiz izlanishi va ma'naviy dunyoqarashini boyitib bormog'i kerak. Keling, yaxshisi, bugungi she'riyat darsimizda tengdoshlaringizning bizga yo'llagan maktublaridagi yarq etgan satri-lari-yu ularning kamchiliklari haqida to'xtalsak. Toshkent viloyatining Chinoz xizmat ko'rsatish va iqtisodiyot kasb-hunar kolleji o'quvchisi Naima Anvarovaning «Bolari» nomli she'rida:



E'zoza

Uchib borar bolari, Dangasalikdan nari. Tinmaydi, charchamaydi, Bekorchini suymaydi.

Foydasi ko'p juda ham, Yomon xislatlari kam. Dardni qiladi ta'qib, Davo beradi chaqib...

Naima sakkiz qatorli she'ri bilan bolarilarning sehrlil olamini kashf etadi. O'quvchi beixtiyor insoniyatga

foydasi tegadigan yetti xazinaning biri bo'lgan bolarilarga nisbatan mehri oshadi. She'ming kuchi ham shunda. Xuddi shunday rangli tasvirni Bekobod tumanidagi 41-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi Dilnozaxon Irisqulovaning «O'zbekiston» nomli she'rida ham ko'rish mumkin:

Imoratlar chiroyidan, Qalbim nurga to'ladi. Onalarning ko'zlarida, Quvonch yoshi to'ladi...

Ana shu maktabning 7-sinf o'quvchisi Ma'rifat Murodova «O'zbekning qizlari», «Ona tabiat» hamda Feruzabonu Toshpo'latova «Xayol» nomli she'rlarini bizga yo'llabdi. Ammo u she'rlarning ustidan ancha ishlashga to'g'ri keladi. Toshkent shahri, Sergeli tumanidagi 322-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi Muxlisa Narzullayevaning «Vafodor do'st» nomli she'rida:

Vafodor do'sting yoningda bo'lsin, Misoli quyosh nur sochib tursin. Yurak to'ridan unga bergin joy, Qalbing yoritib baxsh etar chiroy...

deya do'stlikni ulug'lab o'quvchi qalbiday yaxshi taassurot qoldiradi. Yashnobod tumanidagi 244-umumta'lim maktabining 6-sinf o'quvchisi E'zoza Hasanovaning «Yagonasan – Vatanim!» she'rida Vatanni dil gavhariga u Yer shari bilan uzviy bog'liqligini chiroyli qiyoslab bergan:

Mening aziz onamdek, Yagonasan, Vatanim! Men seni yuragimning, Dilbari deb atadim.

Seni jondek asrayman, Sensan dilim gavhari. Agar sen omon bo'lsang, Omon bo'lgay Yer shari.

Sirdaryo tumanidagi 7-umumta'lim maktabining 5-sinf o'quvchisi Ulug'bek Oripovning «Qo'riqlayman Vatanim!», «Baxtinga sog' bo'ling»,



shu viloyatning Qo'rg'on tepa tumanidagi 45-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi Alina Avazbekova, Himoyat Avazbekovalarning she'rlariga ham taalluqli.

Navoiy viloyati, Nurota tumanidagi 18-umumta'lim maktabining 4-sinf o'quvchisi Habiba Abdujabborovanning «Rahmat senga, kitobim» nomli she'rida:

Rahmat senga, kitobim, Bilimga kon oftobim. O'qish, yozish, chizishdan, Topildi bor javobim.

Bildik o'qish, odobni, Jismoniy mashq qilishni. Sehrling zo'rmi, ko'rsatding, Bizga to'g'ri yurishni...

deya kitobning nurli xislatlarini o'quvchi qalbiga jo' etadi.

Jizzax viloyati, G'allaorol tumanidagi 81-umumta'lim maktabi o'quvchisi Shahzod Bo'riboevning «Bolalarning ko'zlari» she'rida bolalar borliqqa o'zgacha nigoh bilan boqishiga alohida urg'u berilgan:

Dunyoda eng sof, tiniq, Nurlar ichida yoniq. Ko'rar ravshan va aniq, Bolalarning ko'zlari...

Biroq bizga kelgan ko'pgina she'rlarda shoshma-shosharlik bilan yozilgan quruq bayon va rangsiz jumlar uchraydi. Bu esa o'quvchiga ma'naviy ozuqa berish o'rniga uni chalg'itadi. Shunchaki axborot berish bilan cheklanib qolgan yosh ijodkorlarimizga ushbu yo'lni tanlabsizmi, o'z so'zingiz va yo'lingiz bo'lishi uchun tinimsiz o'z ustingizda ishlashingizga to'g'ri keladi. Xalqimizda «Kech bo'lsa ham, yaxshi bo'lsin», degan maqol topib aytilgan.



Muxlisa

«Uch do'st» nomli, Yangiyer shahridan 9-sinf o'quvchisi Anora Mansurovanning she'rlari ancha bo'shligi bilinib turibdi. Andijon viloyati, Buloq-boshi tumanidagi 22-umumta'lim maktabining 6-sinf o'quvchisi Dilafruz Rajabovanning «Muallim» nomli she'rida:

O'qituvchi bo'lgim kelar, Sizga o'xshab, ustozim. Bizga berdingiz ta'lim, Rahmat sizga, muallim...

– kabi juda oddiy bayon so'zlardan foydalanadi. Bu so'zlarni she'r qilmasdan shunday izhor qilsa bo'ladi. Yuqoridagi aytilgan so'zlar

Xorazm viloyati, Xiva tumanidagi 52-umumta'lim maktabi o'quvchisi Rozagul Atoboyeva, Qo'shko'pir tumanidagi 3-umumta'lim maktabi o'quvchisi Mohinur Shohnazarova, Yangiariq tumanidagi 3-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi Cutiruxsor Ruzmetova, Hazorasp tumanidagi 2-umumta'lim maktabi o'quvchisi Diyorbek Davlatmurodov, Buxoro viloyati, Shofirkon tumanidagi 1-umumta'lim maktabining 3-sinf o'quvchilari Firdavs Omonullayev, Akobir Ahmedov, Gulasal Isomova, Azizbek Hamidov, Mirshod Razzoqov, Quvonchbek Abdug'aniyev, G'ijduvon tumanidagi 50-umumta'lim maktabining 5-sinf o'quvchisi Go'zalxon Hamidova, Andijon viloyati, Shahrixon tumanidagi 33-umumta'lim maktabi o'quvchilari Samandar Kimsanboyev, Abdusalom Mahmudov, Ziyodbek Mirzamahmudov, Samandar Karimov, Sardorbek Karimov, Shahzodbek Tojiboyev, Jalaquduq tumanidagi 30-umumta'lim maktabining 6-sinf o'quvchisi Xurshidabonu Turg'unboyeva, Surxondaryo viloyati, Sariosiyo tumanidagi 70-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi Farangiz Ravshanova, Qiziriq tumanidagi 14-umumta'lim maktabining 5-sinf o'quvchisi Gavhar Atoeva, Farg'ona viloyati, O'zbekiston tumanidan Zuhroxon Begmatova yo'llagan maktublaridagi she'rlar hali ijodkordan juda ko'p mehnat, tinimsiz izlanish talab qiladi.

Sizning birgina topqirlik bilan topgan satringizni biz doim intiqlik bilan kutamiz. Shunday ekan, qalam bilan dillashayotganingizda zo'riqmasdan bugungi kunimiz, tinch-todush, farovon hayotimiz suratini chizayotganda rang tanlashda adashmang. Ijod zavqi hech qachon dilingizni tark etmasligini tilaymiz.

BOLALAR SPORTI:

bugungi e'tibor — ertangi g'alabalarga poydevor

— Maktabda o'qib yurganimda jismoniy tarbiya fanini juda yaxshi ko'rdim, — deydi tanish bir do'stim. — Ayniqsa, futbol o'ynash jon-u dilim edi.

Lekin maktabimizda sport zal yo'qligi bois, qish kunlarida nafaqat futbol, balki boshqa sport turlari bilan

ta'lim maskani qad rostladi. Eng quvonarlisi, bolalikdagi orzularimiz ro'yobini farzandlarimiz ko'rdi. Bugun o'g'il-qizlarimiz barcha sharoitlarga ega zamonaviy sport zalida sportning ko'plab turlari bilan muntazam shug'ullanmoqda...

Prezidentimiz tashabbusi bilan tashkil etilgan «Bolalar sportini rivojlantirish» jamg'armasi o'tgan qisqa davr mobaynida mamlakatimiz yoshlari o'rtasida sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ayniqsa, qizlarni sportga keng jalb etish va bu orqali millat genofondini yaxshilash borasida qator ezgu ishlarni amalga oshirdi.

Yaqinda poytaxtimizdagi Milliy matbuot markazida Respublika «Bolalar sportini rivojlantirish»



Prezidentimizning «O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida»gi Qarori ijrosini ta'minlash maqsadida joylarda ko'plab xayrli ishlar amalga oshirilmoqda.

YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATI — AMALDA

Hozirga kelib an'anaga aylanib ulgurgan akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari o'rtasida o'tkazilayotgan futbol bo'yicha «Kamolot» kubogi turniri yoshlarning sportga bo'lgan qiziqishini oshirish, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib etish, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xorazmda o'tkazilgan «Kamolot» kubogi turnirining viloyat bosqichida 11 jamoadan iborat futbolchi yoshlar o'zaro bellashdi. Ushbu musobaqada Xonqa sanoat va xizmat ko'rsatish kasb-hunar kolleji sportchilari 1-o'rinni egalladi va turnirning hududiy bosqichida qatnashish huquqini qo'lga kiritdi.

Ahamiyatlisi, g'olib jamoa tahsil olayotgan ta'lim maskanida futbol to'garagi tarbiyalanuvchilari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Kollej ta'lim sifati bo'yicha viloyatda yuqori ko'rsatkichga egaligi barobarida o'quvchilar sport bilan muntazam shug'ullanishlari musobaqada o'z samarasini berdi.

Nozima JAVHAROVA

ham shug'ullanishning sira imkoni bo'lmasdi. Bunday paytda ustozimiz o'quvchilarni sinfxonaga yig'ib, nazariy mashg'ulotlar o'tish bilan cheklanardi.

Shukurki, Istiqlol bergan imkoniyatlar tufayli bugungi yosh avlod barcha shart-sharoitlarga ega ta'lim maskanlarida tahsil olmoqda. Hukumatimiz tomonidan soha rivojiga qaratilayotgan e'tibor sabab, bizning qishloqlarda ham bundan 7-8 yil avval yangi

jamg'armasi tomonidan tashkil etilgan matbuot anjumanida ham o'tgan yillar davomida soha rivoji yo'lida qilingan ishlar haqida so'z yuritildi. Jamg'arma xodimlari, sportchi yoshlar hamda ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etgan tadbirda qo'lga kiritilgan yutuqlar yana bir bor tilga olinib, kelajakda qilinishi lozim bo'lgan zaruriy masalalarga alohida to'xtalib o'tildi.

Anjuman yakunida jurnalistlar o'zlarini qiziqtirgan barcha savollarga atroflicha javob oldilar.

Sa'dullo TURSINOV

«PAHLAVON»DA POLVONLAR BELLASHDI

Namangan shahridagi «Pahlavon» nomli sport saroyida belbog'li kurash bo'yicha 2001-2002-yillarda tug'ilgan o'smirlar va qizlar o'rtasidagi O'zbekiston chempionatida Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va barcha viloyatlardan yig'ilgan ikki yuz nafardan ortiq yosh polvonlar o'z mahoratlarini namoyish etishdi.



Belbog'li kurash yo'nalishida Husniddin To'xtasinov, Shohrux Zokirov kabi 10ga yaqin sportchilar g'oliblikni qo'lga kiritishdi.

— Barcha hududlarda bo'lgani kabi bizning viloyatda ham belbog'li kurash yoshlar orasida ommalashgan, — deydi Tayloq olimpiya zaxiralari kollejining belbog'li kurash bo'yicha murabbiyi G'anisher Berdiqulov. — Ushbu musobaqada kollejimizning belbog'li kurash yo'nalishida tarbiyalanayotgan besh nafar o'quvchimiz ikkita oltin, ikkita kumush va bitta bronza medaliga sazovor bo'ldi. Albatta, bunday yutuqlar yaratilgan shart-sharoitlar, murabbiylarning samarali mehnatlarining mahsuli, deyish mumkin.

Musobaqa yakunida g'olib va sovrindorlar tashkilotchilar tomonidan diplom, medal va esdalik sovg'alari bilan taqdirlanishdi.

Shoh MUHAMMAD, Ilhom RAHMONOV

Sirdaryo viloyati, Yangiyer shahrida futbol bo'yicha ixtisoslashtirilgan maktab-internatlari tarbiyalanuvchilari o'rtasidagi respublika musobaqasining hududiy bosqichi bo'lib o'tdi.

SIRDARYOLIKLAR G'OLIB

Unda Sirdaryo, Andijon, Buxoro, Xorazm, Surxondaryo hamda Farg'ona viloyati vakillari o'zaro bellashdilar.

— Bu kabi bellashuvlarda mag'lublar bo'lmaydi, — deydi Yangiyer shahar ixtisoslashtirilgan maktab-internati direktori O'rol Haydarov. — Bugungi musobaqa yoshlik, do'stlik va hamjihatlik bayramiga aylandi.

14-15 yoshli bolalar o'rtasidagi bellashuvlarda g'oliblik maydon egalariga nasib etgan bo'lsa, andijonlik futbolchilar 2- va Farg'ona viloyati jamoasi 3-o'rinni egalladi.

12-13 yoshli bolalar bahsida ham Yangiyer shahri yosh futbolchilariga teng keladigani topilmadi. Buxoro va Andijon viloyatlari jamoalari kuchli uchlikdan joy oldi.

1- va 2-o'rinni egallagan jamoalar musobaqaning final bosqichida ishtirok etadi.

Shavkat KAZAKBAYEV

SHAXMATCHILAR BAHSI

Yurtimizda «Kamolot» shaxmat taxtasi sport musobaqalarini o'tkazish an'anaga aylanib qoldi. Mazkur turnir yoshlar o'rtasida ushbu sport turining ommalashishi barobarida qanchadan qancha iqtidorli yosh shaxmatchilarni kashf etdi.

Oqyo'l Rahmatullayevlar singari sportchilar ushbu turnir kashf etgan iste'dodlardir.

Andijonda «Kamolot» shaxmat taxtasi respublika turnirining final bosqichi bo'lib o'tdi. IX bor o'tkazilayotgan turnirning yakuniy bosqichida respublikamizdan 8 yoshdan 19 yoshgacha bo'lgan 140 nafar yosh shaxmatchilar bellashdi.

Navoiy viloyati vakillari Mehribon O'tkirova, Barchinoy Oblayeva, qashqadaryolik Feruza Qurbonova, sirdaryolik Zebo Abdullayeva va Shahnoza Qosimova qizlar o'rtasidagi bahslarda g'oliblikni qo'lga kiritgan bo'lsa, sirdaryolik Bahrom Bahrullayev, Toshkent viloyati vakili Sherzod Samandarov, andijonlik Shohamir Tojiboyev, xorazmlik O'lmas Hakimov, qashqadaryolik Bekzod Husanov o'z yosh toifasida o'g'il bolalar o'rtasida birinchilardan bo'ldi. Umumjamoa hisobida Sirdaryo, Toshkent hamda Navoiy viloyati jamoalari uch o'ringa loyiq topildi.

Shukrulla G'ULOMOV



ERTANGI KUN BIZNIKI, MARRA BIZNIKI!

Yaqinda poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 206-umumta'lim maktabida «Sog'lom yurtning sog'lom farzandiman» deb nomlangan bayram tadbiri bo'lib o'tdi.

Unda bilim maskanining 4-«A» sinf o'quvchilari Asila Erkinova, Saidaxon Do'smatova, Marjona Ahmadova, Mirjamol Ayupov, Farid Xoldorov, Abduxalil Umrzoqov kabi o'quvchilar faol ishtirok etishdi.

– Tadbirga tayyorlanish jarayonida buyuk ajdodlarimiz, jumladan, Sohibqiron Amir Temur haqida ko'plab ma'lumotlarni o'qidik, o'rgandik, – deydi Shahzoda Usmonova.

– Uning bolaligi-yu bunyodkorligi, Sohibqiron so'zining ma'nosi kabi qiziqarli ma'lumotlarni bilib oldik, – qo'shimcha qildi Doniyor Jo'rayev.


4-«A» sinf rahbari Dilorom opa Boymatova boshchiligidagi ushbu tadbir barcha ishtirokchilarga quvonch



ulashdi. Ayniqsa, o'quvchilar «Ertangi kun bizniki, marra bizniki!» deya ishonch bilan kuylashar ekan, buning uchun eng avvalo, shu muqaddas yurtga, ota-onaga munosib farzand bo'lishga so'z berdilar.

Tadбир so'ngida kichikintoylarning Vatani mavzusidagi qo'shig'i ishtirokchilar qalbinida to'qinlantirib yubordi.

F. ABDUSAMAD qizi



Bugun Bobur, Bobomurod, Baxtiyor, Behzodlar Bilol boshchiligidagi Bektosh boboning bog'iga borishdi.

BAHORDA BARI BOSHQACHA

Bobur beshinchi bog'chaga boradi. Bu bola biyron-biyron bidiraydi, bamisoli bulbul bo'lib. Bobomurod boshlang'ichda, birinchiga boradi. Baxtiyor beshinchini bitirdi. Behzod bolalarga begonamas. Bu bolalar boodob, bilimdon bolalar. Baxt belgisi bilimdaligini, bilak bilan bitmaganni bilim bilan bitishini bilishadi.

Bog'ning bir burchagi bodomzor, bir burchagi behizor. Bedazorlarida bedanalar bisyor. Bog'dagi binafshalar, boychechaklar bog'ni bezagan.

Bu bog' Bektosh bobo bilan Bibisora buvining butun borlig'i, boyligi. Bu bog'da baraka bor.

Bobo buvi behad bag'rikeng, bolajon.

Bugun bolalar bozordagi Bakbergan bobo bergan belkurak bilan boltani bobolariga berishdi. Bobosi butalarni bolta bilan butadi. Bolalar belkurak bilan bog'liq barchasini bajarishdi.

Bog'ning bu betida buloq bor. Bolalar buloq boshiga borishib, buloqning «billurchalari»dan bahramand bo'lishdi.

Bularning barchasi butun borliqning boyliliklari. Bulardan bahramand bo'lish buyuk baxtdir.

Azzatjon AZIMOVA,

Xorazm viloyati, Xonqa tumanidagi 40-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi

«NAQSHINKOR SOAT» BOSHQOTIRMASI



8 Tuzuvchi: Hilola NAJMIDDINOVA, 8-sinf o'quvchisi

TAFAKKUR O'YINLARI AQLNI CHARXLAYDI

Assalomu alaykum, sevimli gazetamiz «Tong yulduzi» ijodkorlari! Xabaringiz bor, 2009–2010-o'quv yilida men va shogirdlarim sizlar bilan hamkorlikda gazeta orqali «Tasvirli bilimdonlik» tanlovini tashkil etgandik.

Quvonarlisi, bu tanlov orqali respublikamizning turli burchaklaridan ko'plab yangi do'stlar orttirdik. Natijada, «Tasvirli bilimdonlik» to'garagi safi yanada kengayib, ko'plab o'quvchilarning iqtidori, iste'dodini namoyish etishlariga imkon yaratildi. O'quvchilarim a'lo baholarga o'qishi, namunali xulqi, maktabdan tashqari o'tkazilayotgan ko'rik-tanlovlar, tadbirlardagi faol ishtiroki bilan barcha tengdoshlariga o'rnak bo'lib kelmoqda. Qolaversa, to'garagimiz a'zolari birinchilardan bo'lib 2016-yil uchun «Tong yulduzi» gazetasiga obuna bo'ldilar. Shu bois, «Tasvirli bilimdonlik» tanlovini ushbu yilda ham davom ettirishni maqsad qildik. Buning uchun biz turli fanlar, sohalarga oid bir-biridan qiziqarli tasvirli bilimdonlik o'yinlarini mushtariylar hukmiga havola qilsak-da, topqir o'quvchilar ularga javob yo'llasalar. Javoblarni

Namangan viloyati, Namangan tumanidagi 37-umumta'lim maktabining «Tasvirli bilimdonlik» to'garagiga deb yozishsa maqsadga muvofiq bo'ladi. G'oliblarni Istiqlolimizning 25 yilligi arafasida e'lon qilamiz. Eng ko'p maktub hamda to'g'ri javob yo'llagan o'quvchilarni esa esdalik sovg'alari bilan taqdirlaymiz. Sizlar bilan hamkorligimizni yangi bosqichga ko'tarish umidida e'tiboringizga ijod namunalarimizdan birini havola etyapmiz.

Bo'sh katakchalarga mos kelgan harflarni qo'yib, yangi so'z yasang.

Valijon ABDULLAYEV,
Namangan tumanidagi
37-umumta'lim maktabining
tasviriy san'at fani o'qituvchisi,
«Mehnat shuhrati» ordeni sohibi

18-aprel 2016



Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati
Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga
qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot
va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Omonulla YUNUSOV,
Dilshod KENJAYEV,
Bahodir G'ANIYEV,
Svetlana INOMOVA,
Murtazo SULTONOV,
Zoir ISAJONOV,
Vahobjon RAJAPOV,
Zikrilla TESHABOYEV,
Feruza JALILOVA,
Feruza MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi
muharrir
Dilorom
HOTAMOVA
Rassom
Feruza
KAMOL o'g'li
Sahifalovchi-
dizayner
Shaxobiddin
MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU
bosmaxonasida chop
etiladi.
Manzillimiz va
bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz

Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni
chiqadi.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
Bahosi kelishilgan narxda
ISSN 2010-6092
Tel./faks: 244-63-08
Tel./faks: (99871) 244-38-10
Adadi – 50183
Buyurtma – S 5701